

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



UNIVERSITY
OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES

**TA'LIM SIFATINI
OSHIRISHNI TASHKIL ETISH
VA UNI BOSHQARISH
TEXNOLOGIYALARI**

MAVZUSIDA XORIJIY MUTAXASSISLAR ISHTIROKIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY- AMALIY KONFERENSIYASI

MAQOLALAR TO'PLAMI

TOSHKENT 2023

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

UNIVERSITY OF SCIENCE AND TECHNOLOGIES



**«TA’LIM SIFATINI OSHIRISHNI TASHKIL ETISH VA UNI
BOSHQARISH TEXNOLOGIYALARI»**

**MAVZUSIDA XORIJIY MUTAXASSISLAR ISHTIROKIDAGI RESPUBLIKA
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI**

2023 yil, dekabr

MAQOLALAR TO'PLAMI

TOSHKENT 2023

me'yorlarini aniqlash;

- didaktik jarayonni amalga oshirish maqsadida mustaqil ta'limning tashkiliy shakllari, samarali metod va vositalarini tanlash;

- ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishga qiziqish va ehtiyojlarini e'tiborga olib, muayyan mavzular bo'yicha topshiriqlar, ishlanmalar, tavsiyalar ishlab chiqish;

- talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajalarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqish;

- talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish va amalga oshirish;

- talabalarda mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarining shakllanganlik darajasini baholash.

Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda mustaqil ta'lim – o'z-o'zini boshqara olish, ijodiy jarayonni tashkil eta olish qobiliyati, o'z fikrlarini zarur yo'nalishda boshqara olish, yangi yechimlar, g'oyalar topish imkonini beruvchi manbalarga intilish, o'z ijodiy faolligini ta'minlash uchun mustaqil ravishda sharoit yarata olish, kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini aniqlash, nazorat qilish va baholash, mustaqil ta'lim olishda zamonaviy texnika hamda texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalana olish ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyiligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti.Ped.fan.dokt. diss. – T., 2012.–264b

2.Muslimov N. va boshqalar. Pedagogika (nopedagogik oliy ta'lim muassasalari uchun). T.: TDPU. 2013. 15,25 b.t.

3.Qo'ysinov O.A., Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni tashkil etishning nazariyasi va metodikasi. Monografiya. T.: "Fan", 2009. - 92 b.

HARBIY MADANIYAT KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV.

Qaxxarov Siyovush
NamDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirish jarayoniga pedagogik yondashuvning nazariy va amaliy jihatlari tahlil etiladi. Unda shaxsning harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishi, intizom, mas'uliyat, hamkorlik va qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishning ta'limiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'quv-tarbiyaviy faoliyatda innovatsion pedagogik metodlar va interfaol usullardan foydalanishning samaradorligi hamda harbiy madaniyatni yuksaltirishdagi pedagogik omillari ochib beriladi.

Аннотация: В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты педагогического подхода к процессу формирования военно-культурных компетенций. В нем освещается воспитание личности в военно-патриотическом духе, воспитательное значение развития дисциплины,

ответственности, навыков сотрудничества и принятия решений. Также раскрывается эффективность использования инновационных педагогических методов и интерактивных методов в учебно-воспитательной деятельности, а также педагогические факторы повышения военной культуры.

Abstract: This article analyzes the theoretical and practical aspects of the pedagogical approach to the process of forming military culture competencies. It highlights the educational significance of military-patriotic education of the individual, the development of discipline, responsibility, cooperation, and decision-making skills. Also, the effectiveness of using innovative pedagogical methods and interactive methods in educational activities, as well as pedagogical factors in improving military culture, are revealed.

Kalit so‘z: harbiy madaniyat, kompetensiya, pedagogik vosita, pedagogik imkoniyat, daraja, bosqich, reproduktiv bosqich, produktiv bosqich, yuqori bosqich.

Keywords: military culture, competence, pedagogical tool, pedagogical opportunity, level, stage, reproductive stage, productive stage, higher stage.

Ключевое слово: военная культура, компетенция, педагогическое средство, педагогическая возможность, уровень, этап, репродуктивный этап, продуктивный этап, высший этап.

Harbiy sohada samarali faoliyat yuritish faqatgina jismoniy va texnik tayyorgarlik bilan emas, balki harbiy xodimlarning madaniy, ma'naviy va axloqiy salohiyati bilan ham bevosita bog'liq.

Harbiy madaniyat keng ma'noda harbiy tashkilot va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, harbiy an'analar, urf-odatlar, qoidalar va me'yorlarni o'z ichiga olgan ijtimoiy-ma'naviy tizim hisoblanadi. U shaxs va jamiyatning mudofaa, xavfsizlik, vatanparvarlik va ijtimoiy hamkorlik sohalaridagi bilim, ko'nikma, qadriyat hamda amaliy faoliyatini o'zida mujassamlashtiruvchi murakkab ijtimoiy-pedagogik hodisa sifatida yuksak mas'uliyat hissi, intizomga rioya qilish, vijdonli xizmat qilish va jamoada hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan xulq-atvor, shaxsiy tarbiya, rahbariyat, xizmat intizomi, o'zaro hurmat va mas'uliyat kabi masalalarni qamrab oladi.

Harbiy madaniyat kompetensiyalari bu harbiy xizmatchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, fuqarolik burchini anglash, fidoyilik va vijdonli xizmat qilish tuyg'usini shakllantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va munosabatlar majmuasidir.

Pedagogik va psixologiya sohalarida "kompetensiya" tushunchasi muayyan sohada bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlar, mustaqil faollik kabilarni anglatsa, harbiy sohada mazkur komponentlar vatanparvarlik, fidoyilik, harbiy burchni anglash va bajarish, jamoa bilan muloqot qilish, birgalikda ishlash qobiliyati kabi umummadaniy elementlarni, kommunikativ qobiliyat va ko'nikmalarni uyg'unlikda qamrab oladi. Qayb etish kerakki harbiy madaniyat kompetensiyasi faqat nazariy bilimlar emas, balki amaliy ko'nikmalar va shaxsiy munosabatlar majmuasini ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, kasbiy faoliyatda stressga chidamlilik, vaziyat va imkoniyatga muvofiq mas'uliyatli qarorlar qabul qilish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni anglash va hurmat qilish kabilarni o'zida jamlaydi.

Harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirish bu uzoq muddatli, tizimli va kompleks yondashuvni talab qiladigan jarayondir. U faqatgina bilim berish emas, balki ma'naviy, ruhiy va ijtimoiy tayyorgarlikni ham qamrab oladi. Harbiy xizmatchilarda yuksak ma'naviy salohiyat va madaniy fazilatlarni shakllantirish orqali mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligiga hissa qo'shish mumkin. Shu bois, ushbu masalaga harbiy ta'lim tizimida ustuvor vazifa sifatida qaralish lozim. Jumladan, ta'lim-tarbiya jarayonida harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirishda milliy harbiy tarix, qahramonliklar, Vatan himoyasi idagi muhim voqealar haqida bilim berish yosh avlodda ajdodlardan ibrat olish, ulardan faxrlanish, shuningdek, o'z kasbi va vatani oldidagi mas'uliyat va burch tuyg'usini kuchaytirsam, axloqiy tarbiya orqali intizom, adolat, vijdon, sadoqat kabi fazilatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Harbiy simulyatsiyalar, murakkab vaziyatlarda qaror qabul qilishni talab qiladigan mashqlar orqali harbiy madaniyatni amalda shakllantirib, madaniy ma'rifiy tadbirlar orqali soha yo'nalishlarida o'z'aro ishonchga asoslangan jamoaviy madaniy muhit yaratiladi. Ularning barchasini mazmuniga vatanparvarlik ta'limi, axloqiy-ruhiy tayyorgarlik, qonuniylik va ixtiyoriylik singdiriladi.

Harbiy madaniyat kompetensiyalarini baholash uchun maxsus testlar, so'rovnomalar va pedagogik kuzatuvlar o'tkaziladi. Bu orqali qanday bilim va ko'nikmalar shakllanganligi, shaxsiy munosabatlar va xulq-atvor darajasi, jamoadagi o'zaro munosabatlar sifati monitoring qilib boriladi.

Harbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik vositalari amaliy va boshqaruv vositalari tarkibida nazariy va ma'naviy vositalar birlamchi vositalar hisoblanib ular orqali ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi ob'ekt va sub'ektlarning bilim va axloqiy asoslari mustahkamlanadi. Jarayonda oqilona va o'z o'rnida qo'llanilgan axborot texnologiyalari esa zamonaviylik va xavfsiz tajriba orttirishni ta'minlash bilan birga ta'lim sifati va samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Qayd etish joizki mazkur jarayonda ustivlor ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-psixologik vositalar sohaga oid muhitni ma'naviy va axloqiy jihatdan yanada sog'lomlashtiradi. Agar yuqorida qayd etilgan pedagogik vosita va imkoniyatlardan oqilona foydalanilsa, harbiy madaniyatni produktiv darajasiga erishishning pedagogik vositalari uni reproduktiv bosqichdan produktiv va yuqori bosqichga erishish imkoniyatlarini oshiradi.

Harbiy madaniyat kompetensiyalarining reproduktiv, produktiv va yuqori darajalari pedagogik jihatdan turlicha mazmunga ega. Reproaktiv darajada tayyor bilimlar o'zlashtiriladi va intizomiy asoslar mustahkamlanadi. Produktiv darajada bilimlar amaliyotda qo'llanilib, shaxs mustaqillikka o'rganadi. Yuqori darajada esa ijodkorlik, liderlik, strategik fikrlash va ma'naviy barkamollik shakllanadi. Produktiv darajada shaxsning faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki amaliy faoliyatda samarali qo'llash, o'z hayotida va xizmat jarayonida qoida, tartib, intizom va ma'naviy-axloqiy tamoyillarga amal qilishiga erishishda ya'ni, nazariy bilimlar amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirilishida, bir so'z bilan aytganda harbiy madaniyatda ongli yondashuv yuzaga kelishida pedagogik vositalar hal qiluvchi omil hisoblanadi. Yoshlar va harbiy xizmatchilarning dunyoqarashi, ma'naviy qiyofasi va kasbiy malakasi shakllantiriladi. Keyingi bosqich o'z-o'zidan

harbiy madaniyatning produktiv darajasiga yo‘l ochadi. Ya’ni, produktiv daraja murakkab va ko‘p qirrali jarayon sifatida ham nazariy ham amaliy ham ma’naviy-axloqiy, psixologik, axborot-kommunikatsion va boshqaruv vositalarining uyg‘unlashuvi orqali erishiladigan o‘rta bosqich hisoblanadi.

Shu jihatdan qaraganda, harbiy madaniyatni produktiv darajaga yetkazish nafaqat pedagogik jarayonning samaradorligini oshiradi, balki butun jamiyatda xavfsizlik, barqarorlik va ma’naviy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shaxsning tayyor bilim, ko‘nikma va qadriyatlarni qabul qilib, ulardan belgilangan tartibda foydalanish, ya’ni mavjud tajribani o‘zlashtirib, uni qayta ishlab chiqmasdan amaliyotda qo‘llash darajasidir. Bunday bosqichda shaxs mustaqil ijodiy yondashuvni ko‘rsatmaydi, biroq harbiy intizom, nazariy bilim va amaliy mashg‘ulotlarni aniq va to‘g‘ri bajarish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

Reproduktiv va produktiv bosqichlardan keyin harbiy madaniyatning yuqori bosqichi shakllanadi va harbiy madaniyatning eng mukammal bosqichi sifatida namoyon bo‘ladi. Harbiy madaniyatning yuqori darajasi deganda shaxsning faqat tayyor bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi emas, balki ularni ijodiy tarzda qo‘llashi, turli murakkab vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila olishi, vatanparvarlik va fidoyilik ruhida o‘z faoliyatini ongli tashkil etishi tushuniladi.

Harbiy madaniyatni shakllantirishning yuqori darajasi – bu shaxsning nazariy bilim, amaliy ko‘nikma, ma’naviy barkamollik, psixologik barqarorlik va texnologik savodxonlikni uyg‘unlashtira olishi bilan belgilanadi. Bunday bosqichga yetgan shaxs faqat buyruqlarni bajaruvchi emas, balki ongli ravishda qaror qabul qiluvchi, jamiyat va davlat xavfsizligiga mas’uliyat bilan yondashuvchi, boshqalarga namuna bo‘luvchi yetuk inson sifatida shakllanadi. Bu daraja harbiy madaniyatning eng mukammal ifodasi bo‘lib, milliy xavfsizlik va ma’naviy barqarorlikning kafolatlaridan biri hisoblanadi. Shu bois harbiy ta’lim tizimida ushbu bosqichlar uzviy tarzda uyg‘unlashtirilishi lozim. Bu nafaqat professional harbiy kadrlar, balki jamiyat xavfsizligi va barqarorligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 416 bet.

2. White R.W. Motivation reconsidered: the concept of competence // Psychological Review. 1959. № 66. P. 297–333.

3. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To‘raev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari – Toshkent, 2015. – 120 b.

4. Turdiev N.Sh., Asadov Yu.M., Akbarova S.N., Temirov D.Sh. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. – T.: T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, 2015.- 160 b.

5. Xodjaev B.X. Umumta’lim maktabi o‘quvchilarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. – Toshkent, 2016. – 314 b.

ahamiyati.....	
Xoshimova N. O‘zbek onalarining farzandlarini o‘zbekona erkalashlari.....	227-бет
Qaxxarov S. Harbiy madaniyat kompetensiyalarini shakllantirishga pedagogik yondashuv.....	229-бет
Ma’mirova G.I. Ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar.....	233-бет
BARQAROR IQTISODIY O‘SISHDA SIFATLI KADRLARNING O‘RNI VA RO‘LI	
Isayeva N.X. O‘zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishida investitsion faoliyatning ahamiyati.....	236-бет
Маматов М. Спорт менежменти тамойиллари трансформациясининг ўзига хос хусусиятлари.....	239-бет
Ибрагимова Г.Т., Фуламов М.С. Рақамли иқтисодиёт шароитида таълимда рақамли технологияларнинг ўрни ва аҳамияти.....	242-бет
Ибрагимова Г.Т., Сатторова М. Яшил иқтисодиётга ўтишда таълим ва тарбиянинг ўрни муҳим.....	245-бет
Komolov S.X. Sanoat tarmoqlarida innovatsiya faoliyatni samaradorligini oshirishda kadrlarni tutgan o‘rni.....	248-бет
Komolov S.X. Korxonani innovatsion faoliyatni takomillashtirishda kadrlarning ahamiyati.....	252-бет
Туйчиева М.Г. Роль гуманитарного знания в картине мира современного человека.....	255-бет
Xamitova M.S., Turopova U.A. O‘zbekiston hududida aholini ro‘yxatga olish tarixi.....	257-бет
Xamitova M.S., Samatova N.M. O‘zbekiston respublikasi qishloq xojaligi maxsulotlari ishlab chiqarish dinamikasini statistik usullar yordamida taxlil qilish.....	263-бет
Xamidov Sh. Davlat budjeti daromadlari shakllanishida soliqlarning roli va iqtisodiy tahlili.....	267-бет
Mullajonov Q.M. Iqtisodiyotni yuksalishida malakali kadrlarni.....	269-бет
Mullajonov Q.M. Raqamli texnologiya asosida inson resurslarini rivojlantirish.....	271-бет
TA’LIM VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR	
Khasanov A.A., Muzaffarova U.F. Scientific and methodological analysis of the essence of e-learning.....	274-бет
Хасанов А.А., Салимова Е.Т. Теоретические подходы к созданию педагогических концепций.....	276-бет
Алмуратов Ш.Н., Алмуратова М. Ш., Саматова Н. М., Усмонова М. К. Колебания сферических оболочек с наполнителем.....	279-бет
Эсанов Н. Қ., Choriyev M., O‘rolov O‘.A. Differensial tenglamalarni yechishda dasturlar majmuasidan foydalanish.....	287-бет
Djavliyeva G.R., Almuratova S.Sh., Almuratova M.Sh. Tabiiy fanlarni o‘qitishda integrativ yondashuv asosida uzviylikni ta’minlash strategiyasi.....	290-бет